

**Xudoynazrova Zulayho Sohibnazar qizi
Guliston davlat universiteti “Psixologiya
va ijtimoiy fanlar” fakulteti tayanch
doktaranti**

KICHIK YOSHDAGI O‘QUVCHILARDA IJTIMOIIY ONGNI SHAKLLANTIRISHDA LOYIHA ASOSIDAGI O‘QITISH

Annotatsiya: Kichik maktab yoshidagi bolalarning ijtimoiy ongini shakllantirishda loyiha asosidagi o‘qitish metodlari muhim rol o‘ynaydi. Ushbu metodlar orqali bolalar o‘z shaxsiyatlarini rivojlantiradilar, pedagoglarning ta’sirida ijtimoiy mas’uliyatni oshiradilar. O‘qish jarayonida ifodali o‘qish va hissiy tajribalar bolalarning bilim olishini yanada chuqurlashtiradi. O‘quvchilar o‘zaro hamkorlikda faol ishtirok etib, ijtimoiy faolliklarini oshiradilar va o‘zlarining hissiy tajribalarini namoyon etadilar. Bu jarayon, shuningdek, bolalarning o‘z vaqtida rag‘batlantirilishi va pedagogik yondashuvlarning moslashuvchanligi orqali amalga oshiriladi.

Kalit so‘zlar: Kichik maktab yoshidagi bolalar, ijtimoiy ong, loyiha asosidagi o‘qitish, pedagogik ta’sir, ta’lim jarayoni, hissiy tajribalar, ifodali o‘qish, ijtimoiy mas’uliyat.

**Худойназова Зулайхо
Гулистанский государственный
университет, факультет психологии и
социальных наук, докторант**

ФОРМИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ЧЕРЕЗ ПРОЕКТНОЕ ОБУЧЕНИЕ

Аннотация: Формирование социального сознания у детей младшего школьного возраста играет важную роль в современных образовательных методах. Проектное обучение способствует развитию личности, повышая уровень социальной ответственности учащихся под влиянием педагогов. Процесс чтения включает выразительное чтение и эмоциональный опыт, углубляя понимание материала. Учащиеся активно участвуют в взаимодействии, что повышает их социальную активность и позволяет выразить свои эмоциональные переживания. Этот процесс осуществляется благодаря своевременному стимулированию и гибкости педагогического подхода.

Ключевые слова: Дети младшего школьного возраста, социальное сознание, проектное обучение, педагогическое влияние, учебный процесс, эмоциональный опыт, выразительное чтение, социальная ответственность.

Khudoynazrova Zulaykho

DEVELOPING SOCIAL CONSCIOUSNESS IN YOUNG SCHOOLCHILDREN THROUGH PROJECT-BASED LEARNING

Annotation: The formation of social consciousness in young school-age children plays a crucial role in modern educational methods. Project-based learning fosters personality development while enhancing students' social responsibility under the influence of educators. The reading process incorporates expressive reading and emotional experiences, deepening material comprehension. Students actively engage in interactions, increasing their social activity and allowing them to express their emotional experiences. This process is facilitated through timely encouragement and the flexibility of pedagogical approaches.

Keywords: Young school-age children, social consciousness, project-based learning, pedagogical influence, educational process, emotional experiences, expressive reading, social responsibility.

KIRISH. Kichik maktab yoshidagi bola shaxsining ijtimoiy faolligini rivojlantirish, maktab ta'limini modernizatsiya qilishning strategik yo'nalishlaridan biridir. Pedagog, ota-onalarga nisbatan, kichik maktab yoshidagi bola shaxsiyatini rivojlantirishda katta ta'sir kuchiga ega. Jumladan, uning dunyoqarashi, hayotiy pozitsiyasi va bolalarga bo'lgan munosabati o'quvchi shaxsiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Boshlang'ich ta'limda ta'lim va tarbiya jarayonlari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Boshlang'ich ta'limda deyarli barcha fanlarni bitta pedagog olib borishi, uning shaxsiy xususiyatlari – axloqi, madaniyati, pedagogik qobiliyati, bolalarga bo'lgan munosabati va xarakteri kichik maktab yoshidagi bolalarning shaxsiy-xulqiy sifatlariga singib ketishiga olib kelishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, parallel sinflarga nisbatan yaqqol aks etadi va kichik maktab yoshidagi bolalarda yuqori sinflarga o'tgunlariga qadar davom etishi mumkin.

Shuningdek, 7-9 yoshdagi boshlang'ich sinf o'quvchilari oilasidagi katta yoshli bobo-buvilarining ko'maklariga muhtoj bo'lganligi sababli, pedagoglardan tashqari, ularning ko'rsatmalariga amal qilishlari tabiiy holatdir. Pedagogning har bir o'rgatgan bilimlariga bolalar tomonidan haqiqat sifatida ishonish, ularga taqlid qilish va topshirilgan vazifalarni mehr va muhabbat bilan bajarish kabi psixologik xususiyatlar boshlang'ich ta'limning muhim shartlaridan biridir. Shu bilan birga, ushbu xususiyatlar bolalar tarbiyasidagi ilk axloqiy va madaniy sifatlarning shakllanishi bilan bog'liq jarayon hisoblanadi.

Ushbu fikrlar asosidagi o'qitish metodlari, o'quvchilarning ijtimoiy ongini shakllantirishda, ularning faol ishtirokini ta'minlash va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Loyiha asosidagi o'qitish nafaqat bilimlarni o'zlashtirishga, balki o'quvchilarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga ham xizmat

qiladi, bu esa ularning kelajakdagi ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantiradi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida kichik maktab yoshidagi bolalar o'quv sharoitiga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu esa ta'lim olishga qiziqmasliklariga olib keladi. Ular ko'pincha kattalar orasida erkin bo'lishni afzal ko'rishadi. Biroq, pedagoglar va ularga yaqin kattalar bolalarni o'quv faoliyatiga va ta'lim jarayoniga jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Kichik maktab yoshidagi bolalar juda ta'sirchan va atrof-muhitga nisbatan sezgirliklari bilan ajralib turadi, ularning idroki esa boshqa yoshdagi bolalardan farq qiladi.

Bir yil davomida o'qish davomida kichik yoshdagi bolalar o'z o'quv faoliyatlarida mobil bo'lishni o'rganadilar. Ikkinchi sinfga o'tganlarida, ular pedagogning har qanday bayonotlariga yuqori darajada javob berishga tayyor bo'ladilar va yangi ma'lumotlarga, o'qituvchining hazil va hayotiy misollariga jonli munosabatda bo'lishadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning tayyorgarliklaridan biri, darhol javob berishga moyillik ko'rsatishda namoyon bo'ladi. Bu holat, ularning impulsiv va beixtiyor harakatlarini oshiradi, shuningdek, o'quv jarayoniga tezda kirishga imkon beradi va so'z boyliklarini oshiradi.

Pedagoglar yangi ta'lim sharoitlariga moslashishni ta'minlash uchun bolalarning o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonida zerikishlariga yo'l qo'ymasliklari zarur. Buning uchun, vazifalardan biridan ikkinchisiga tez o'tish yoki uzoq vaqt dam olishga ruxsat bermaslik muhimdir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar javob berishda bevosita taassurotlarga boy va faoldirlar. Dars jarayonida qo'llaniladigan ko'rgazmali materiallar ularning o'quv materialini o'zlashtirish qiziqishini oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Boshlang'ich ta'limda kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'qish jarayonida ijodiy va hissiy tajribalarini namoyon etishadi. O'quv materiallarini o'zlashtirishda, bolalar muallif tomonidan ilhomlantirilgan tasavvurlarni qabul qilishlari, hazil-mutoyibalar bilan tabassum qilishlari yoki hamdardlik ko'rsatishlari bilan birga, muallifga nisbatan ishonchni yo'qotmasliklari ko'rsatadi. Dars mavzusiga oid materiallarning jonliligi va sinf xonasining moslashuvchanligi bolalarning diqqatini jalb etishda muhim ahamiyatga ega.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning qiziqishlari kattalar dunyosiga yaqinlashishi, shuningdek, ushbu yosh davriga xos psixologik tayyorgarlik, bilimlarni o'zlashtirishda soddalik va o'ynoqilikni keltirib chiqaradi. Bu jarayon orqali bolalar bilim sohasiga kirib, o'ynashda davom etadilar. Kattalardan olingan tushunchalarning tashqi assimilyatsiyasi yangi bilimlarni qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar, maktabgacha yoshdagi bolalarga nisbatan, o'tkazilayotgan ma'lumotlarning sabab va ma'nolarini mustaqil ravishda aniqlashga qiziqmaydilar. Ular o'zlarini cheksiz bilimlar to'plamining chekkasida his qilishlari sababli, barcha narsani egallashga urinmaydilar. Ularning idroki sodda va o'yinqaroq tabiatga ega bo'lib, pedagogik amaliyotda ifodali o'qish jarayonini qiziqarli qiladi.

O'qish darslarida boshlang'ich ta'lim o'quvchilari iboralarni baland, aniq va mazmuniga mos intonatsiyalar bilan talaffuz qilish vazifasini bajaradilar. Dars

jarayonida muallif yoki asar qahramonlarining rollarini o'ynash zarurati paydo bo'ladi. Boshlang'ich ta'limda o'qish tarzi ko'p jihatdan o'qituvchining uslubini takrorlash orqali amalga oshiriladi. Biroq, ayrim o'quvchilar o'z layoqatlari, jarangdor ovozlari va intonatsiyalarni to'g'ri ifodalashda ko'rsatgan zukkoliklari bilan o'qituvchidan ustunlik ko'rsatishlari mumkin. Bunda, o'quvchilar o'z his-tuyg'ularini g'ayrat va to'liqlik bilan ifoda etishda hech qanday xijolat his qilmaydilar.

METOD VA METODOLOGIYA. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijtimoiy ongini shakllantirishda loyiha asosidagi o'qitish metodlari samarali mexanizm sifatida muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar pedagoglarga o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, o'zaro muloqot va hamkorlikni ta'minlash imkonini beradi. Darslarni hayotiy misollar bilan boyitish, bolalarning o'z fikrlarini ifoda etishlariga va ijtimoiy muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishlariga yordam beradi.

Loyiha asosidagi o'qitish metodlari bolalarning hissiy va intellektual rivojlanishini ta'minlaydi, shuningdek, ularning ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi. Bunday metodologik yondashuvlar, o'quvchilarni o'zaro fikr almashish va tajribalarini baham ko'rishga rag'batlantiradi. Natijada, o'quvchilar o'zlarining ijtimoiy onglarini rivojlantirib, kelajakda faol fuqarolar sifatida o'zlarini namoyon etishlariga yordam beradi.

Ushbu jarayonlar, nafaqat ta'lim mazmunini, balki bolalar bilan ishlash strategiyalarini ham o'z ichiga oladi. Pedagoglar tomonidan amalga oshiriladigan metodologik yondashuvlar o'quvchilarning ijtimoiy, hissiy va intellektual rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning ijtimoiy ongini shakllantirish va ularni jamiyatga faol qo'shilishiga xizmat qiladi.

NATIJA VA MUHOKAMA. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'qish jarayonida his-tuyg'ularni taqlid qilish orqali o'z bilimlarini yanada mustahkamlashlari mumkin. Ularning ifodali o'qishlari samimiy va oqilona intonatsiyalarni o'z ichiga oladi, bu esa ushbu yosh davrining xususiyatlaridan biridir. Biroq, boshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun tashqi taassurotlar kuchli chalg'ituvchi omil sifatida xizmat qilishi mumkin. Ular tushunarsiz materiallarga diqqatni jamlashda qiyinchiliklar bilan duch keladilar, bu esa diqqatning beqarorligi bilan bog'liq.

Kichik maktab yoshidagi bolalar 10-20 daqiqa davomida biror narsaga diqqatini jalb etishlari mumkin. Ilk o'smirlik davrida bu diqqat vaqti 40-45 daqiqagacha, o'spirinlarda esa 45-50 daqiqagacha cho'zilishi mumkin. O'quv jarayonidagi ortiqcha yuklamalar ruhiy tushkunlikka olib kelishi va o'quvchilarning shaxsiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababdan, pedagoglar o'quv materiallari mazmunini shakllantirishda bu holatlarni hisobga olishlari zarur.

O'quvchilar qiyinchiliklarni boshdan kechirishlari, lekin ularning sabablarini anglamasliklari tufayli, qat'iyat va tirishqoqlik bilan harakat qilishlari natijasida kerakli natijalarga erisha olmasliklari yoki nochor holatga tushishlari kutiladi. Natijada, o'z kuchiga bo'lgan ishonchning kamayishi kuzatiladi. Agar o'quvchilarga

qiyinchiliklarni yengishga yordam berilmasa, bu ularning o'z-o'zidan shubhalanishiga va ishonchsizlikning barqaror xususiyatga aylanishiga olib kelishi mumkin.

Bunday ishonchsizlik, o'quv materiallari hajmi va ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklar o'rtasidagi nomuvofiqlik bilan tavsiflanadi. Ta'lim muammolarini hal qilishda muvaffaqiyatsizlikka uchragan o'quvchilar o'zlarini chidamsiz va irodasiz deb ta'riflashlari mumkin. Bu holat kichik maktab yoshidagi bolalarda o'quv jarayoniga qiziqishning pasayishiga olib keladi. Natijada, muvaffaqiyatsizliklar bolalarni jamoadan izolyatsiyalanishiga sabab bo'lishi mumkin, bu esa bolaning maktabga nisbatan nafrat yoki rad etish holatlariga olib kelishi mumkin.

Ushbu muammolarni hal qilishda loyiha asosidagi o'qitish metodlari o'quvchilarning ijtimoiy ongini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarga qiyinchiliklarni yengishda yordam berish, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini tiklash va ta'lim jarayonida faol ishtirok etishlarini ta'minlash lozim. Har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini inobatga olish, o'quv jarayonida muvaffaqiyatga erishishda muhim omil hisoblanadi.

XULOSA. Kichik maktab yoshidagi bolalarning maktab jamoalaridan tashqarida do'st izlashlari va salbiy ijtimoiy yo'naltirilishlari ko'plab holatlarda kuzatilishi mumkin. Bu kabi vaziyatlar, o'quvchilarning salbiy tomonga o'zgarishi va o'quv jarayonida past o'zlashtirish darajasiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, o'quvchilarning salbiy rivojlanishini oldini olish maqsadida, pedagoglar tomonidan zarur choralar ko'rilishi lozim. Kichik maktab yoshidagi bolalar, idrok etiladigan ma'lumotlarga nisbatan past tanqidiy qobiliyatga ega bo'lishlari bilan ajralib turadilar. Bunday sharoitda, pedagogning fikri ularning qarashlari va o'zlashtirish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bu holatda, pedagoglarni rag'batlantirish, ularning ijtimoiy ma'naviyatini rivojlantirish va o'quv faoliyatini samarali tashkil etish uchun motivatsiya vazifasini o'taydi.

Ushbu jarayonlar o'quvchilarda ijtimoiy ongni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Loyiha asosidagi o'qitish metodlari bolalarning ijtimoiy faoliyatlarida ishtirok etishini oshirishga yordam beradi hamda ularning o'zaro muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bunday yondashuvlar, o'quvchilarning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlab, ularning salbiy ijtimoiy yo'nalishlardan qochishlariga yordam beradi, natijada, maktabda muvaffaqiyatli va faol shaxslar sifatida rivojlanishlariga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. –T.: Fan va texnologiya, 2008. – 107 b.
2. Abdullayeva M.N. Pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni. – T.: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2021. - 45 b.
3. Qodirova S.A. O'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda loyiha asosidagi o'qitish metodlari. – T.: Ta'lim va tarbiya, 2022. - 50 b.
4. Rasulov R.A. Boshlang'ich ta'limda ijtimoiy ongni shakllantirishning usullari. – T.: O'zbekiston ta'lim nashriyoti, 2021. - 40 b.

5. Oxunov I.A. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijtimoiy ongini rivojlantirishning pedagogik shartlari, Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2022 йил № 3), ISSN 2181-1709 (P), 93-96 б.
6. То'raqulov X.A., То'raqulova I.X., Oslanova K.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini yuksaltirishning innovatsion texnologiyalari. –T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. -37 b.
7. Xudoynazarova Z.S. Kommunikativ kompetentlikni o'stirish: muammo va yechimlar, "New renaissance international scientific journal" ResearchBib IF-2023: 11.01, ISSN: 3030-3753, Volume 1 Issue 7 ISSN: 3030-3753. VOLUME 1, ISSUE 2, 195-199 б.
8. Xudoynazarova Z.S. Talabalarda kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga innovatsion yondashuvlar, "Zamonaviy ilm-fan ta'lim istiqbollari" ilmiy amaliy konferensiya materiallari. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13831594>, 128-131 б.
9. Xudoynazarova Zulayho Sohibnazarovna. (2024). INNOVATIVE APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN STUDENTS. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13831594>
10. Khudaynazarova Z.S. The role of pedagogical technologies in improving the quality of education, ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference, 29-31 page.